



XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYAT KENGASHI Q A R O R I

2023 - yil 11 - avgust

VI-64-84-4-0-K/23

Qashqadaryo viloyati hokimligi

Xalq deputatlari viloyat Kengashining Reglament va deputatlik odobi komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2023-yil 25-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglament va odob komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi KQ-476-IV-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2023-yil 25-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglament va odob komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi KQ-476-IV-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari viloyat Kengashining Reglament va deputatlik odobi komissiyasi negizida Xalq deputatlari viloyat Kengashining Odob-axloq masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi tashkil etilsin.

3. Quyidagilar:

Xalq deputatlari viloyat Kengashining Odob-axloq masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi to'g'risidagi Nizom **1-ilovaga**;

Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalari **2-ilovaga**;

Xalq deputatlari viloyat Kengashining reglamenti hamda Xalq deputatlari viloyat Kengashining doimiy komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomga kiritilayotgan o‘zgartishlar **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 9-dekabrdagi “Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-54-195-4-0-K/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Odob-axloq komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



M.Azimov

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 11-avgustdagi
VI-64-84-4-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

**Xalq deputatlari viloyat Kengashining
Odob-axloq masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi to'g'risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom xalq deputatlari viloyat Kengashining Odob-axloq masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (bundan buyon matnda Komissiya deb yuritiladi) vazifalarini, vakolatlarini, faoliyatining asosiy yo'nalishlarini, shuningdek uning ishini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

2. Komissiya xalq deputatlari viloyat Kengashi Reglamentining (bundan buyon matnda Kengash Reglamenti deb yuritiladi) normalariga, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalariga (bundan buyon matnda Odob-axloq qoidalari deb yuritiladi) rioya etilayotganligi ustidan nazoratni ta'minlash va ularga rioya etish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish uchun tuziladi.

3. Komissiyaning faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuniga, "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, Xalq deputatlari viloyat Kengashining Reglamentiga, ushbu Nizomga hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Komissiya (uning tarkibi) xalq deputatlari viloyat Kengashining (bundan buyon matnda Kengash deb yuritiladi) majlisida deputatlar orasidan Kengash vakolatlari muddatiga saylanadi.

5. Komissiyaning soni va shaxsiy tarkibi Kengash qaroriga asosan o'zgartirilishi mumkin.

6. Komissiya o'z faoliyatini qonuniylik, xolislik va adolatlilik tamoyillariga asosan olib boradi.

7. Komissiyaning faoliyati Kengash qarori bilan muddatidan ilgari to'xtatilishi mumkin.

2-bob. Komissiyaning asosiy vakolatlari

8. Komissiya o'z vakolatlari doirasida:

Deputatlar Kengash Reglamenti normalariga va Kengash a'zolarining Odob-axloq qoidalariga rioya etayotganligi, shu jumladan, Kengash va uning organlari majlislarida doimiy ishtirok etayotganligi ustidan doimiy monitoring olib boradi;

jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan deputatlarning xatti-harakatlari ustidan kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqadi;

Kengash Raisining topshirig'i, deputatlarning va fuqarolarning murojaatlari asosida yoxud o'zining tashabbusi bilan o'z majlislarida deputatlar tomonidan Kengash Reglamenti normalari va Kengash a'zolarining Odob-axloq qoidalariga, shuningdek umumiy etilgan axloq normalari buzilgan holatlarni ko'rib chiqadi hamda baholaydi;

Odob-axloq qoidalarini qo'llash bo'yicha deputatlarga maslahat va tavsiyalar beradi;

deputat maqomini tartibga soluvchi normalar buzilganligi to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqadi;

deputatning o'zi a'zo bo'lgan doimiy komissiya majlislarida uzrli sababsiz hozir bo'lmasligi to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqadi;

Kengash topshiriqlarining deputat tomonidan bajarilmayotganligi to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqadi;

deputatlar orasida qoidabuzarliklarning oldini olish bo'yicha kompleks choralar ko'radi;

Kengash a'zolarining Odob-axloq qoidalariga loyihasini ishlab chiqadi va Kengash tasdig'iga kiritadi, uni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

deputatlarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish hamda deputat faoliyatining boshqa kafolatlarini ta'minlash bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi;

Odob-axloq qoidalarini buzgan deputatga nisbatan ta'sir choralari qo'llash, shuningdek Kengash Reglamenti qoidalariga buzilgan holatlarni bartaraf etish to'g'risida Kengashga takliflar kiritadi;

deputat tomonidan Odob-axloq qoidalariga talablari buzilgan taqdirda, deputatdan va boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan zarur axborotni so'rab oladi;

Odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog'liq masalalar yuzasidan

xulosalar tayyorlaydi;

Kengash va uning organlari majlisida o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan Komissiya xulosasini taqdim etadi;

deputatning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish va uni chaqirib olish to'g'risidagi materiallarni Kengashda ko'rib chiqish uchun tayyorlaydi;

deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi materiallarni Kengashda ko'rib chiqishi uchun tayyorlaydi;

Komissiya, uning majlislariga ko'rib chiqish uchun kiritilgan masalalarni hal qilish uchun ekspertlar va mutaxassislarni taklif qiladi;

deputat tomonidan Odob-axloq qoidalari buzilgan taqdirda, unga tegishli bo'lgan zarur ma'lumotlarni so'rab oladi;

Komissiya faoliyati masalalariga doir Kengash qarorlari loyihalarini ishlab chiqadi.

Komissiya Kengash qarorlariga, shuningdek ushbu Nizomga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

9. Komissiya doimiy komissiyalar va boshqa organlar, mansabdor shaxslar va jamoatchilik bilan Komissiya vakolatiga doir masalalar yuzasidan hamkorlik qiladi.

10. Komissiya masalalarni Kengashning topshirig'iga binoan yoxud o'z tashabbusi bilan ko'rib chiqadi.

3-bob. Komissiya ishini tashkil etish

11. Komissiya uning raisi, rais o'rinbosari va a'zolaridan iborat tarkibda faoliyat olib boradi.

12. Komissiya o'z ishini yig'ilish shaklida tashkil etadi. Komissiya majlislari zaruratga qarab chaqiriladi.

13. Kengash Reglamenti normalari va deputatlarning Odob-axloq qoidalari buzilishi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

14. Komissiya majlislarida taklif etilgan manfaatdor shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Komissiya sayyor majlislar o'tkazishga haqli.

15. Komissiya qarori ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Komissiya qarori, agar unga majlisda hozir bo'lgan Komissiya a'zolarining ko'pchiligi ovoz

bergan bo'lsa, qabul qilingan hisoblanadi. Qarorni yoqlab va unga qarshi berilgan ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda, Komissiya majlisiga raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

16. Komissiya faoliyatiga rais rahbarlik qiladi.

Rais:

Komissiya ishini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

Komissiya majlislarini chaqiradi va olib boradi;

Komissiya tomonidan tayyorlangan qarorlar, xulosa va takliflarni Kengashga taqdim etadi;

o'z vakolatlari doirasida Komissiya a'zolariga topshiriqlar beradi;

Komissiya a'zolarini Komissiyaga kelib tushayotgan barcha hujjatlar va materiallardan xabardor qiladi;

Komissiya majlislarida ishtirok etish uchun manfaatdor shaxslarni taklif etadi;

Komissiya a'zolarini Komissiya qarorlarining bajarilishi haqida xabardor qiladi;

Komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni imzolaydi.

17. Komissiya raisining o'rinbosari:

Komissiya ish yurituvini ta'minlaydi;

Komissiya majlislari uchun materiallarni tayyorlash bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

Komissiya a'zolarini majlislar vaqti va kun tartibi to'g'risida xabardor etish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi;

rais bo'lmaganida uning vazifalarini bajarib turadi.

18. Komissiya a'zosi majlisda ishtirok etishi va o'ziga yuklatilgan topshiriqlarni bajarishi shart.

Majlisda ishtirok etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, Komissiya a'zosi Komissiya raisiga yoki Komissiya raisi o'rinbosariga majlisda ishtirok eta olmaslik sabablari haqida xabar beradi.

4-bob. Komissiya majlislarini o'tkazish tartibi

19. Deputat tomonidan Odob-axloq qoidalarini buzish bilan bogʻliq oʻrganishni dastlabki tarzda oʻtkazish uchun quyidagilar asos boʻladi:

yuridik va jismoniy shaxslardan deputat tomonidan Odob-axloq qoidalarini buzish bilan bogʻliq shikoyatlarning kelib tushishi;

ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali eʼlon qilingan deputatning nojoʻya harakatlariga doir xabarlar;

deputat tomonidan qonun hujjatlari, axloq normalari va Odob-axloq qoidalarini buzish faktlari boʻyicha materiallarni koʻrib chiqish haqida Kengash koʻrsatmasi;

deputat degan nomga dogʻ tushiruvchi nojoʻya xatti-harakatlar sodir etilganligi haqidagi korxona, tashkilot, muassasa va jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslar bergan xabarlar;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarning rasmiy xabarlari.

20. Anonim xabar va murojaatlar asosida oʻrganish oʻtkazilishi mumkin emas.

21. Odob-axloq qoidalarini buzish bilan bogʻliq oʻrganishlar Komissiya tomonidan bunday axborot kelib tushgan kundan eʼtiboran oʻn besh kunlik muddatdan oshirmagan holda amalga oshiriladi, qoʻshimcha oʻrganish va (yoki) tekshirish, qoʻshimcha hujjatlarni soʻrab olish talab etilganda esa, bir oygacha boʻlgan muddatda koʻrib chiqiladi.

Odob-axloq qoidalarini buzish bilan bogʻliq oʻrganish oʻtkazish uchun qoʻshimcha tekshirish oʻtkazish, materiallarni soʻrab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar koʻrish zarur boʻlgan hollarda, oʻrganish oʻtkazish muddati Kengash raisi tomonidan istisno tariqasida uzogʻi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchi xabardor qilinadi.

22. Komissiya majlisiga, haqiqiy holatlarni aniqlash va xolisona qaror qabul qilish maqsadida, oʻziga nisbatan masala koʻrib chiqilayotgan deputat, zarur boʻlgan hollarda esa, murojaat qiluvchi va boshqa shaxslar taklif etiladi.

Komissiya majlisining vaqti va joyi haqida tegishli ravishda xabardor etilgan shaxslarning kelmasligi murojaatni koʻrib chiqish uchun toʻsqinlik qilmaydi.

23. Oʻziga nisbatan oʻrganish oʻtkazilayotgan deputat quyidagi huquqlarga ega:

oʻrganish tayinlanganligi va unga asos boʻlgan hujjat mazmuni bilan tanishib chiqish;

o'rganish o'tkazish bo'yicha Komissiya a'zolari yuzasidan e'tirozi bo'lgan taqdirda Kengash raisiga asoslantirilgan raddiya berish;

hujjatlar, ma'lumotnomalar va boshqa dalillarni taqdim etish;

o'rganish natijasidan norozi bo'lgan taqdirda Kengashga belgilangan tartibda shikoyat qilish.

24. Deputat o'rganish yuzasidan so'ralgan zarur hujjatlarni va boshqa axborotlarni tegishli komissiyaga taqdim etishi lozim. Bunda, o'rganish o'tkazishga to'sqinlik qilishga, Komissiya a'zolariga o'z vazifalarini amalga oshirishga xalaqit qilishga va ularga ta'sir o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

25. Odob-axloq qoidalarining deputat tomonidan buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda, Komissiya unga nisbatan quyidagi ta'sir ko'rsatish choralari qo'llash bo'yicha Kengashga masala kiritishga haqli:

deputatga Kengash Reglamenti va Odob-axloq qoidalari takror buzilishiga yo'l qo'ymaslikni ko'rsatib o'tgan holda ogohlantirish berish;

deputatdan Kengashning majlisida uzr so'rashni talab etish;

deputatga Kengashning majlisida tanbeh berish;

deputatni "adolatli deputat", "xalqparvar deputat", "mehnatkash deputat" kabi maqomlaridan mahrum qilish;

deputatni Kengash majlislarida ishtirok etish va ovoz berish huquqidan muayyan muddatga mahrum qilish.

Komissiya deputat ushbu qoidalar buzilishiga yo'l qo'yganligi faktini Kengashning majlisida o'qib eshittirishi mumkin.

26. Deputatlar xatti-harakatiga doir quyidagi murojaatlar ko'rib chiqilmaydi:

komissiyada oldin ko'rib chiqilgan murojaat va aynan shu mazmundagi takror murojaatlar;

anonim murojaatlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar, ularning vakolatiga oid hujjatlar mavjud bo'lmaganda;

qonun hujjatlarida belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan murojaatlar.

27. Komissiya qabul qilingan qaror haqida murojaat qiluvchiga, o'ziga nisbatan masala ko'rib chiqilgan deputatga va Kengashga yozma ravishda ma'lum qiladi.

Kengash qarorining loyihasi Komissiya tomonidan Kengashga ko'rib chiqishi uchun kiritilganda, unga qisqa tushuntirish xati va boshqa zarur materiallar ilova qilinadi.

28. Komissiyaning qarori ustidan Kengashga shikoyat qilinishi mumkin. Kengash qarorini bekor qilishga va o'z vakolati doirasida boshqa qaror qabul qilishga haqli.

29. Murojaat uning tashabbuskori tomonidan Komissiya qarori qabul qilinguniga qadar qaytarib olinishi mumkin.

Taraflar yarashgan, shuningdek deputat o'z xohishi bilan oshkora uzr so'ragan hollarda, deputat ta'sir choralari qo'llanilishidan ozod etilishi mumkin.

30. Komissiya majlisi, agar unda Komissiya a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi.

31. Komissiya majlislari yakuni bo'yicha qaror qabul qiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

32. Komissiya faoliyatiga moddiy-texnik, axborot va boshqa xizmatlarni ko'rsatishni xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati ta'minlaydi.

33. Mazkur Nizom talablarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 11-avgustdagi
VI-64-84-4-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalari

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalari (bundan buyon matnda Odob-axloq qoidalari deb yuritiladi) “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamenti hamda Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining doimiy komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomga, shuningdek umume’tirof etilgan odob normalariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining (bundan buyon matnda deputatlar deb yuritiladi) o‘z deputatlik vakolatlarini amalga oshirishda rioya etishi lozim bo‘lgan xulq-atvor qoidalarini belgilaydi.

2. Odob-axloq qoidalari deputatlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qonunlari bilan kafolatlangan huquq va erkinliklarini cheklamaydi.

3. Deputat o‘z vakolatlarini amalga oshirishi chog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga va boshqa qonunchilik hujjatlariga, Xalq deputatlari viloyat Kengashining reglamentiga va ushbu qoidalarga amal qiladi.

4. Deputat o‘z faoliyatida jamiyatda umum qabul qilingan odob-axloq prinsiplariga qat’iy rioya etishi, fuqarolarning, mansabdor shaxslarning huquqlari, sha’ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro’sini hurmat qilishi, shuningdek deputat nomiga dog‘ tushiradigan va xalq deputatlari viloyat Kengashi (bundan buyon matnda Kengash deb yuritiladi) nufuziga, umuman davlat manfaatlariga putur yetkazadigan xatti-harakatlardan o‘zini tiyishi lozim.

5. Deputat o‘z vazifalarini vijdonan va halol bajarishi, o‘zi a’zo bo‘lgan siyosiy partiya, partiya guruhi va Kengash doimiy komissiyasi rejalarida, Kengash

qarorlarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashi, o'z malakasini yuqori darajada tutib turishi, nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirib borishi kerak.

6. Kengashda doimiy asosda ishlaydigan deputat o'z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari boshqa haq to'lanadigan faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin emas. Deputatning ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi uning asosiy kasbiy vazifalarini bajarishga zarar yetkazmasligi kerak.

7. Deputat o'z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiradi:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonun hujjatlariga rioya etish;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ustuvorligi;

saylovchilarning, o'zini deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiyaning manfaatlarini Kengashda ifodalash;

deputatlik faoliyatining ochiqligi va oshkoraligi, o'z faoliyati to'g'risida saylovchilarni doimiy xabardor qilib borish.

2-bob. Deputatlarning Kengash sessiyasi, doimiy komissiya va partiya guruhi majlislaridagi deputatlik odobi

8. Deputat Kengashning sessiyalarida, shuningdek o'zi tarkibida bo'lgan doimiy komissiya va siyosiy partiya guruhining majlislarida ishtirok etishi shart.

Sessiya yoki majlisda ishtirok etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, deputat bu haqda Kengash raisi, Kengash kotibiyati mudiri, doimiy komissiya raisi, partiya guruhi rahbariga kamida bir kun oldin (ishtirok etish imkoniyatiga to'sqinlik qiluvchi to'satdan yuzaga kelgan vaziyat bo'yicha sessiya yoki majlis boshlanishidan oldin) xabar qilishi shart.

9. Deputat Kengash sessiyasi, doimiy komissiya va partiya guruhi majlislarida:

o'z nutqida deputatlarning yoki boshqa shaxslarning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan qo'pol, haqoratomuz ibora va so'zlarni, imo-ishoralarni qo'llamasligi;

sessiya, majlislarni o'tkazishga xalaqit beradigan harakatlarga yo'l qo'ymasligi - so'zga chiqqanlarning so'zini bo'lmasligi, Kengash faoliyatiga oid qonunchilikda nazarda tutilgan tartibga zid ravishda o'z fikrini bayon qilishga urinmasligi;

baqirmasligi, muhokama etilayotgan masala yuzasidan so'zga chiqqanlarning o'z nuqtai nazarini erkin bayon etishiga to'siqlar vujudga keltirmasligi;

turli uzrsiz sabablarga ko'ra majlislar zalidan namoyishkorona chiqib ketmasligi;

kun tartibidagi muhokama qilinayotgan masaladan imkon qadar chetga chiqib so'zlamasligi, biror shaxsning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi asossiz ayblovga yo'l qo'ymasligi;

so'zga chiqish, deputatlik faoliyatining boshqa shakllarini amalga oshirish chog'ida bila turib yolg'on va (yoki) noto'g'ri axborotdan foydalanmasligi;

Kengash Reglamenti va ushbu Qoidalarining talablarini buzadigan boshqa xatti-harakatlarni sodir etmasligi kerak.

Deputatning deputatlik faoliyatidagi tashqi ko'rinishi va kiyinish uslubi aholining Kengashga hurmatini, shu jumladan deputatning nufuzini oshirishga xizmat qilishi kerak.

Deputat o'z deputatlik faoliyati davomida uning vakolati va shaxsini tasdiqlovchi hujjat hisoblangan guvohnomani o'zi bilan birga olib yurishi, ko'krak nishonini ko'krakning chap tomoniga taqib yurishi shart.

10. Deputat ushbu Qoidalarining 9-bandida nazarda tutilgan xatti-harakatlarni sodir etgan taqdirda, tegishli sessiya yoki majlisda raislik qiluvchi:

bunday qoidabuzarliklarga yo'l qo'yib bo'lmasligi to'g'risida deputatni ogohlantirishga;

deputatni so'zlash huquqidan mahrum qilishga;

deputatdan majlislar zalini tark etishni talab qilishga;

Kengashning Odob-axloq masalalari bo'yicha komissiyasidan (bundan buyon matnda Odob-axloq komissiyasi deb yuritiladi) deputatning xatti-harakatlariga baho berishni so'rashga haqli.

11. Deputat sessiya yoki majlisda shaxsan ovoz berishi shart.

Ovoz berishni boshqa deputat yoki o'zga shaxsga bergan deputatning xatti-

harakatlari bo'yicha Odob-axloq komissiyasi yoki uning taklifi bilan Kengash tomonidan ushbu Qoidalarda hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida belgilangan ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin.

**3-bob. Deputatlarning boshqa deputatlar, saylovchilar,
siyosiy partiya, partiya guruhi va Kengash kotibiyati
xodimlari bilan o'zaro munosabatlari**

12. Deputatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jinsi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi, ijtimoiy mavqeyi va siyosiy mansubligidan qat'iy nazar teng huquqlilik, bir-birini o'zaro hurmat qilish asosida yo'lga qo'yiladi.

13. Deputatlar tanqidga sabr-toqat bilan yondashishi, o'ziga nisbatan bildirilgan tanqidiy fikrlarga qo'pollik bilan munosabat bildirishga yo'l qo'ymasligi kerak.

14. Deputatlar o'z ishida har qanday masalani erkin jamoaviy muhokama qilish, fikrlar xilma-xilligini hurmat qilish prinsiplariga asoslanishi, nizolarga yo'l qo'ymasligi, kelishmovchiliklarni ochiq fikr almashish orqali bartaraf etish yo'llarini birgalikda izlashi kerak.

15. Deputat saylovchilar bilan doimiy aloqada bo'lib turadi. Deputatning saylovchilar bilan munosabatlari o'zaro hurmat qilish, saylovchilar tomonidan ko'tariladigan muammolar va masalalarga deputatning e'tibor bilan munosabatda bo'lishiga asoslanadi.

16. Deputat:

qoida tariqasida, bir oyda kamida bir marotaba saylovchilar uchun qabul tashkil etishi;

saylovchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rishi;

saylovchilardan tushgan takliflar, arizalar, shikoyatlarni ko'rib chiqishi, ularda ko'rsatilgan masalalarning to'g'ri va o'z vaqtida hal etilishiga o'z vakolatlari doirasida ko'maklashishi;

jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini oldindan belgilangan

grafik asosida shaxsan qabul qilishi lozim.

17. Deputat saylovchilar bilan ishlashga vijdonan va halol yondashishi, ular bilan bo'ladigan uchrashuvlarda shaxsan ishtirok etishi, bu jarayonda rasmiyatchilikka yo'l qo'ymasligi hamda soxta axborotlar taqdim etmasligi shart.

18. Deputat o'z deputatlik faoliyati haqida saylovchilarni belgilangan tartibda vaqti-vaqti bilan, shu jumladan ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda xabardor qiladi.

Deputat tomonidan saylovchilarga taqdim etiladigan axborot to'liq, to'g'ri va xolisona bo'lishi kerak.

19. Deputat uni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya va partiya guruhi bilan aloqa bog'lab turadi hamda ularning ustavida (nizomida) belgilangan odob-axloq va intizom qoidalariga amal qiladi.

Deputat Kengashda uni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya manfaatlarini ifoda etadi.

20. Deputat Kengash kotibiyati xodimlari uchun o'rnak bo'lishi, ularga xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi, ularni jinsi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi va ijtimoiy mavqei bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymasligi lozim.

Deputat Kengash kotibiyati xodimlaridan shaxsiy manfaatlari yo'lida yoki ularning xizmat majburiyatlariga kirmaydigan vazifalarda foydalanishi mumkin emas.

4-bob. Ommaviy chiqish chog'idagi deputatlik odobi

21. Deputat ommaviy axborot vositalari, matbuot konferensiyalari, boshqa jamoat tadbirlaridagi, omma oldidagi bayonotlarida, shu jumladan, Internet tarmog'ida ochilgan shaxsiy sahifalarida, ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlarida (blog, post, izohlar qoldirishda):

Kengashning, uni nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya va partiya guruhining nufuzini tushirishga olib kelishi yoki uning o'z vakolatlarini vijdonan amalga oshirishiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan harakatlardan tiyilishi;

o'zining xatti-harakati, axloqi tufayli jamoatchilikning tanqidiga uchramasligi hamda asosli va konstruktiv tanqidni to'g'ri qabul qilishi;

davlat organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolarning faoliyatiga nisbatan e'tirozlari bo'lsa, ularni asoslangan, aniq muammoga qaratilgan holda bayon etishi, tekshirilmagan, isbotlanmagan ma'lumot va dalillardan foydalanmasligi;

yuridik shaxslarning ishchanlik obro'siga, jismoniy shaxslarning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan asossiz, yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlarni tarqatmasligi;

fuqarolar bilan muloqot qilishda ularning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan qo'pol, haqoratomuz ibora va so'zlarni qo'llamasligi, asossiz ayblovlarga yo'l qo'ymasligi, qonunga xilof xatti-harakatlarga da'vat etmasligi hamda bila turib yolg'on va noto'g'ri axborotdan foydalanmasligi kerak.

Deputat ommaviy chiqishi chog'ida sud tizimi va sudyalari haqida tanqidiy fikr bildirishda ularning mustaqilligi va xolisligiga ta'sir ko'rsatmasligi, tanqidiy fikr dalillar bilan asoslangan va aniq bo'lishi hamda sudga hurmatsizlikni ifoda etmasligi lozim. Deputat sudlar siyosatdan xoli ekanligi va tanqidlarga javob berishi uning xolisligini shubha ostiga qo'yishi mumkinligini inobatga olishi zarur.

22. Agar deputatning omma oldidagi bayonotlarida fuqarolarning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga, yuridik shaxsning ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan fikrlar mavjud bo'lsa, deputat o'z fikrlarining yanglishligi yoki noto'g'riligini oshkora tan olishi hamda sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga daxl qilingan fuqaro va (yoki) yuridik shaxsdan uzr so'rashi kerak.

23. Deputat boshqa deputatlarning kasbiy va shaxsiy sifatlarini oshkora shubha ostiga qo'ymasligi lozim.

24. Deputat o'ziga rasman vakolat berilgan hollardagina Kengash nomidan so'zlashi mumkin.

5-bob. Deputatlik maqomidan g'ayriqonuniy ravishda

foydalanishga yo'l qo'yilmasligi

25. Deputat o'z maqomidan fuqarolar, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda foydalanishi mumkin emas.

Deputatning o'z maqomidan, shu jumladan, nazorat vakolatlaridan:

o‘zi, yaqin qarindoshlari va o‘ziga yaqin boshqa shaxslar uchun manfaat, xizmatlar, tijoratga oid yoki boshqa naf olishga;

o‘z shaxsiy va yaqinlarining manfaati yo‘lida foydalanishga va bu vakolat orqali davlat organlari mutasaddilariga tazyiq o‘tkazishga;

sud hokimiyati organlari faoliyatiga aralashishga, shaxsiy masalalar bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlari, davlat xizmatchilari va boshqa shaxslarga ta’sir o‘tkazishga;

ijroiya hokimiyati organlarining kadrlar siyosatiga aralashishga, muayyan shaxslarni ishga qabul qilish, lavozimini ko‘tarish yoki moddiy yoxud ma’naviy rag‘batlantirishga undashga;

davlat organlarining qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilishga, ularni o‘z faoliyatini qonunchilikka zid ravishda amalga oshirishga undashga;

qonunchilikda nazarda tutilmagan imtiyozlar, preferensiyalar yoki afzalliklarni olish yoxud boshqa qonunchilikka zid maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

26. Deputat moddiy manfaatdorlik evaziga Kengash sessiyasi yoki uning organlari majlisida biror masalani olib chiqishi yoki uni qo‘llab-quvvatlab ovoz berishi mumkin emas.

27. Deputat Kengash, uning organlari hamda deputatlik blankalaridan faqat deputatlik vakolatlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan rasmiy xat, so‘rov va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirishda foydalanishi shart.

Deputat davlat mulkining but saqlanishini ta’minlashi hamda o‘ziga ishonib topshirilgan davlat mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi lozim.

6-bob. Deputatlik vakolatlarini amalga oshirishi munosabati

bilan olingan ma’lumotlarning oshkor etilmasligi

28. Deputat deputatlik vakolatlarini amalga oshirishi munosabati bilan o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan ma’lumotlarni, agar ushbu ma’lumotlar:

Kengashning yopiq sessiyasi yoki uning organlari yopiq majlislarida ko‘rib chiqilgan masalalarga taalluqli bo‘lsa;

davlat siri, qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirga taalluqli bo'lsa;

deputatning daxlsizligini cheklashga yoki deputat tomonidan ushbu Qoidalarining buzilganligi bilan bog'liq bo'lsa;

saylovchilarning yoki boshqa shaxslarning shaxsiy hayotiga oid sir bo'lsa va deputatga ularni oshkor etmaslik sharti bilan ishonib ma'lum qilingan bo'lsa, oshkor etmasligi lozim.

29. Deputat davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar tomonidan o'ziga taqdim etilgan rasmiy xizmatga oid ma'lumotdan shaxsiy naf ko'rish uchun foydalanishga haqli emas.

7-bob. Xorijga xizmat safari davrida, chet ellik fuqarolar

bilan uchrashuvlarda deputatlik odob-axloq qoidalari

30. Deputat rasmiy delegatsiyalar tarkibida va chet ellik fuqarolar bilan uchrashuvlarda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organining vakili ekanligini namoyish eta olishi lozim.

31. Deputat rasmiy delegatsiyalar tarkibida chet davlatlarda bo'lgan paytida xizmat safarining maqsad va vazifalarini ro'yobga chiqarishga, Kengashning nufuzini va umuman O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashishi, o'zi borgan mamlakatning qonun hujjatlari talablariga hamda rasmiy va norasmiy tadbirlarni o'tkazish chog'ida umum qabul qilingan odob normalariga rioya etishi kerak.

8-bob. Xizmatdan tashqari vaqtdagi va kiyinish odobi qoidalari

32. Deputat xizmatdan tashqari vaqtda deputatning yuksak nomiga dog' tushiradigan, o'zining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'siga, Kengashning nufuziga putur yetkazadigan, deputatlik vakolatlarini suiiste'mol qilish deb baholanadigan har qanday xatti-harakatlardan tiyilishi, shu jumladan:

jamoat joylarida (kafe, restoran va boshqa ko'ngilochar maskanlarda) o'zini tutish qoidalariga rioya etishi, atrofdagilarning e'tiborini tortuvchi ortiqcha va salbiy

harakatlarga yoʻl qoʻymasligi;

dabdababozlik, shuhratparastlik, guruhbozlik, maishatbozlik, ichkilikbozlik va boshqa salbiy illatlarga yoʻl qoʻymasligi;

jamoat tartibi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan xatti-harakatlarni sodir etmasligi, boshqalarni noqonuniy harakatlarga daʼvat qilmasligi shart.

Shaxsiy oʻzaro munosabatlarda deputat kamtar, halol, xushmuomala boʻlishi va hech kimga nisbatan qoʻpol munosabatda boʻlmasligi lozim.

33. Kundalik turmushda odob normalariga rioya etish ushbu Qoidalarining ajralmas qismidir. Deputat kiyinishi uslubining sipoligi va kamtaronaligi bilan ajralib turishiga harakat qilishi lozim.

Deputat ayniqsa deputatlik vakolatlarini amalga oshirish chogʻida oʻta dabdabali kiyim-bosh kiymasligi, ortiqcha bezaklar va boshqa aksessuarlar taqmasligi kerak.

9-bob. Manfaatlar toʻqnashuvi va korrupsiyaga qarshi choralar

34. Deputat oʻz faoliyatida manfaatlar toʻqnashuviga yoʻl qoʻymasligi, begʻaraz va xolis boʻlishi kerak. Basharti, Kengash sessiyasi, doimiy komissiya yoki partiya guruhi majlisida deputat bevosita yoxud yaqin qarindoshlari orqali shaxsiy manfaatdorlikka ega boʻlgan masala koʻrib chiqilayotgan boʻlsa, u bu haqda raislik qiluvchini xabardor qilishi shart.

Raislik qiluvchi manfaatlar toʻqnashuvining oldini olish maqsadida shaxsiy manfaatdorligi boʻlgan deputatning muhokamalarda soʻz olish huquqini cheklashi mumkin.

35. Deputat oʻz vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini koʻzlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan har qanday sovgʻa olishi taqiqlanadi.

Deputat alohida xizmatlari uchun Kengashning qarori asosida, shuningdek musobaqalar va tanlovlarda erishgan yutuqlari, davlat bayramlari, nishonlanadigan sanalar hamda boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan mukofotlash natijasida yoxud xizmat safarlari, xorijlik delegatsiyaning Oʻzbekistonga tashrifi vaqtida, shuningdek xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan sovgʻalar olishi mumkin.

Xizmat safarlari, xalqaro, xorijiy delegatsiyaning O'zbekistonga tashrifi vaqtida, shuningdek xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olingan sovg'a qiymati bazaviy hisoblash miqdorining to'rt baravaridan oshmasligi lozim, ushbu miqdordan oshadigan sovg'alar Kengash mulki bo'lib, Kengashga taqdim etilishi shart.

36. Deputat o'z vakolatlarini amalga oshirish chog'ida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi va korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarning (harakatsizlikning) oldini olishi shart.

Agar deputat korrupsiya faktlari to'g'risidagi axborotga ega bo'lsa, u korrupsiyaning oldini olish uchun zarur choralar ko'rishi, shu jumladan Kengash yoki uning organlari rahbarlarini yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organini darhol xabardor qilishi yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organga murojaat etishi kerak.

10-bob. Odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan

nazorat va uni buzganlik uchun javobgarlik

37. Quyidagi holatlar deputat ustidan Odob-axloq qoidalarini buzish bilan bog'liq o'rganishni dastlabki tarzda o'tkazishga asos bo'ladi:

saylovchilardan deputat tomonidan Odob-axloq qoidalarini buzish bilan bog'liq shikoyatlarning kelib tushishi;

OAV, jumladan Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilingan deputatning nojo'ya harakatlariga doir xabarlar;

deputat tomonidan qonun hujjatlarini, umum qabul qilingan odob normalarini, Odob-axloq qoidalarini buzish faktlari bo'yicha materiallarni ko'rib chiqish haqida Kengash raisining ko'rsatmasi;

deputat degan nomga dog' tushiruvchi nojo'ya xatti-harakatlar sodir etilganligi haqidagi korxona, tashkilot, muassasa va jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslar bergan xabarlar;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarning rasmiy xabarlari;

Odob-axloq komissiyasi tashabbusi.

38. Anonim xabar va murojaatlar asosida o'rganish o'tkazilishi mumkin

emas.

39. Odob-axloq qoidalarini buzish bilan bog'liq o'rganishlar Odob-axloq komissiyasi tomonidan, bunday axborot kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kunlik muddatda amalga oshiriladi, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa, bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

Odob-axloq qoidalarini buzish bilan bog'liq o'rganish o'tkazish uchun qo'shimcha tekshirish o'tkazish, materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, o'rganish o'tkazish muddati Kengash raisi tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga xabar qilinadi.

40. O'ziga nisbatan o'rganish o'tkazilayotgan deputat Kengash yoki Odob-axloq komissiyasining o'rganish tayinlash haqidagi qarori hamda unga asos bo'luvchi murojaat (shikoyat, xabar) mazmuni bilan tanishtiriladi.

41. O'ziga nisbatan o'rganish o'tkazilayotgan deputat quyidagi huquqlarga ega:

o'rganish tayinlanganligi va unga asos bo'lgan hujjat mazmuni bilan tanishib chiqish;

o'rganish o'tkazish bo'yicha Odob-axloq komissiyasi a'zolari yuzasidan e'tirozi bo'lgan taqdirda Kengash raisiga asoslantirilgan raddiya berish;

hujjatlar, ma'lumotnomalar va boshqa dalillarni taqdim etish;

o'rganish natijasidan norozi bo'lgan taqdirda Kengashga belgilangan tartibda shikoyat qilish.

42. Deputat zimmasiga ko'rilayotgan ish yuzasidan o'zining aybsizligini yoki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emas.

43. Deputat o'rganish yuzasidan so'ralgan zarur hujjatlarni va boshqa axborotlarni Odob-axloq komissiyasiga taqdim etishi lozim. Bunda, o'rganish o'tkazishga to'sqinlik qilishga, Odob-axloq komissiyasi a'zolariga o'z vazifalarini amalga oshirishga xalaqit qilishga va ularga ta'sir o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

44. Odob-axloq komissiyasi ish yuzasidan quyidagi huquqlarga ega:

o'rganish o'tkazishga aloqador bo'lgan, boshqa idoralar yurituvda bo'lgan hujjatlarni talab qilib olish, tanishib chiqish va nusxa olish;

o'rganish o'tkazilayotgan deputatdan tushuntirishlar olish;

zaruratga ko'ra, o'rganish uchun tor doiradagi mutaxassis (ekspert)larni jalb qilish.

45. O'rganish yakuni bo'yicha Odob-axloq komissiyasi tomonidan xulosa qabul qilinadi va Kengashning navbatdagi sessiyasi tasdig'iga kiritiladi.

46. O'rganish xulosasi Kengash sessiyasi tomonidan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kirgan hisoblanadi.

11-bob. Yakunlovchi qoidalar

47. Odob-axloq komissiyasi ushbu Qoidalarni buzgan deputatga nisbatan quyidagi ta'sir ko'rsatish choralaridan birini qo'llash bo'yicha Kengashga xulosa kiritishga haqli:

deputatga ushbu Qoidalarni buzishga yo'l qo'yilmasligini ko'rsatib o'tgan holda ogohlantirish berish;

deputatdan Odob-axloq komissiyasi, doimiy komissiya majlisi yoki Kengash sessiyasida rasman uzr so'rashni talab etish;

deputat tomonidan ushbu Qoidalarning buzilishiga yo'l qo'yilganligi faktini Kengash sessiyasida o'qib eshittirish;

“Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida belgilangan ta'sir choralarini qo'llash.

48. Deputat tomonidan umum qabul qilingan odob normalarini, deputatlik odobini qo'pol tarzda buzadigan, deputatning yuksak nomiga dog' tushiradigan, davlat hokimiyati vakillik organlarining obro'siga putur yetkazadigan xatti-harakatlar, nojo'ya ishlar sodir etilgan taqdirda, u qonunda belgilangan tartibda chaqirib olinishi yoki uning vakolatlari Kengash qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin.

Deputat o'ziga nisbatan qo'llanilgan ta'sir chorasi yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda viloyat Kengashiga, Oliy Majlis Senatiga yoki sudga shikoyat qilishi mumkin.

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 11-avgustdagi
VI-64-84-4-0-K/23-son qaroriga
3-ilova

**Xalq deputatlari viloyat Kengashining reglamenti hamda
Xalq deputatlari viloyat Kengashining doimiy komissiyalari to‘g‘risidagi
nizomga kiritilayotgan o‘zgartishlar**

1. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2021-yil 24-avgustdagi VI-27-35-4-0-K/21-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Xalq deputatlari viloyat Kengashining namunaviy reglamentiga quyidagi o‘zgartishlar kiritilsin:

1) 79-modda birinchi qismining to‘qqizinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“odob-axloq masalalari bo‘yicha komissiya”;

2) 80-modda ikkinchi xatboshi ikkinchi qismidagi “Reglament va deputatlik odobi masalalari bo‘yicha doimiy komissiya” degan so‘zlar “Odob-axloq masalalari bo‘yicha doimiy komissiya” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

3) 88-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalariga rioya qilishi”;

4) 91-modda:

birinchi qismidagi “Deputatlik odobi qoidalariga” degan so‘zlar “Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismidagi “Deputatlik odobi qoidalari” degan so‘zlar “Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2021-yil 24-avgustdagi VI-27-35-4-0-K/21-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Xalq deputatlari viloyat Kengashining doimiy komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomga quyidagi o‘zgartishlar kiritilsin:

1) **4-band birinchi qismidagi** “Reglament va deputatlik odobi masalalari komissiyasi” degan soʻzlar “Odob-axloq masalalari boʻyicha doimiy komissiya” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

2) **10-band ikkinchi qismidagi** “reglament va deputatlik odobi masalalari boʻyicha” degan soʻzlar “odob-axloq masalalari boʻyicha” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

3) **18-band:**

birinchi xatboshisidagi “Reglament va deputatlik odobi masalalari boʻyicha doimiy komissiya” degan soʻzlar “Odob-axloq masalalari boʻyicha doimiy komissiya” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshisidagi “Deputatlik odobi qoidalarini” degan soʻzlar “Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalarini” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshisidagi “Deputatlik odobi qoidalari” degan soʻzlar “Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshisidagi “Deputatlik odobi qoidalarini” degan soʻzlar “Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalarini” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

3. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2022-yil 20-maydagi “Xalq deputatlari viloyat Kengashining doimiy komissiyalari tarkibiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi VI-46-90-4-0-K/21-sonli qarorining ilovasidagi **“Reglament va deputatlik odobi masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi”** soʻzlari **“Odob-axloq masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi”** soʻzlari bilan oʻzgartirilsin.